

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 2. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 2(4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**МУНДАРИЖА****07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС  
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,  
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR ..... 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH  
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ  
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ..... 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ..... 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ  
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ..... 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH ..... 69-75

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI .... 76-81

*Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna*

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI ..... 82-86

*Turdiyev Bexruz Sobirovich*

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI ..... 87-92

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI ..... 93-98

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ .....	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI .....	120-125
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI .....	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR .....	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV .....	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI .....	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ .....	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI .....	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI .....	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY .....	191-197
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	213-220
<i>Raimova Shohsanam Fayratjonovna</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	221-227
<i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH.....	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	261-265
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕYLAR MISOLIDA).....	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI.....	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	305-310

*Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI ..... 311-317

*Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna*

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

**Kadirova Ziyoda Rahimdjano**  
Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar  
kafedrasida katta o'qituvchisi

### **ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI**

**Annotatsiya.** Maqolada islom falsafasida ilm tushunchasi juda muhim o'ringa ega bo'lgani, islom manbalarida ilmu ma'rifatga, insonning dunyoni bilish imkoniyatlari va qobiliyatlariga alohida o'rin berilgani ochib berilgan. Sharq va G'arb olimlari qarashlarida ilmga oid o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** ilm, islom, fan, falsafa, islom falsafasi.

---

**Kadirova Ziyoda Rakhimdjano**  
Senior Lecturer of the Department  
of Social Sciences Alfraganus university

### **THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF SCIENCE IN ISLAMIC PHILOSOPHY**

**Abstract.** The article reveals that the concept of science occupies a very important place in the philosophy of Islam, and in Islamic sources a special place is given to knowledge and enlightenment, human capabilities and abilities to understand the world. Similar and different aspects of science are analyzed in the views of Eastern and Western scientists.

**Key words:** science, Islam, science, philosophy, philosophy islam.

---

**Кадырова Зиеда Рахимджановна**  
Старший преподаватель кафедры социальных наук  
Университета Альфраганус

### **СУТЬ ПОНЯТИЯ НАУКИ В ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

**Аннотация.** В статье раскрывается, что понятие наука занимает очень важное место в философии ислама, а в исламских источниках особое место отводится познанию и просвещению, возможностям и способностям человека познавать мир. Сходные и разные аспекты науки анализируются во взглядах восточных и западных ученых.

**Ключевые слова:** наука, ислам, наука, философия, философия ислама.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N11>

**Kirish.** Mustaqillik yillaridan boshlab Imom Buxoriy, Imom Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Abu Mansur Moturidiy, Shayx Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali kabi ko'plab ulug' allomalar, tariqat peshvolari, aziz avliyolarning nomi tiklandi. Qabrlari obod qilinib, ziyoratgohga aylantirildi, asarlari o'rganildi. Jumladan, Qur'oni karim, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning Hadis kitoblari, Abu Homid G'azzoliy asarlari tarjima qilindi. Samarqand,

Buxoro hadisshunoslik va fiqh maktablari, Markaziy Osiyoda shakllangan falsafiy tafakkur rivoji haqida qator tadqiqotlar dunyoga keldi.

Islom falsafasida ilm va din o'rtasidagi munosabatni to'g'ri anglab yetish uchun, avvalo, ushbu dinning asosiy manbalarida ilmga munosabat qanday bo'lganligi xususida aniq va mukammal tasavvur hosil qilish kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Ilm so'zining ma'nosi (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001), Qur'onda, oyat va hadislarda berilgan "ilm" yoki "ilm o'rganish" so'zlari (A. Mansur, 2001), olam qonuniyatlarini tadqiqot qilish (G'azzoliy, 2003), Islom tamadduni davri ilm-fanning ulkan yutuqlari, din va ilm mutanosibligi (A. Abdujabborov, H. Hamdamova, 2002)

**Metodologiya.** Islom muqaddas manbalarida, Sharq va g'arb mutafakkirlari ijodida ilm, diniy va dunyoviy bilimlar haqidagi qarashlar qiyosiy tahlil etilgan. Islom ta'limotida ilm va uning nazariy-uslubiy asoslarini ilmiy bilishning obyektivlik, vorisiylik, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullariga tayanilgan holda o'rganildi.

**Natija va muhokama.** Hozirgi davrga kelib, islom faylasuflari bir necha asrlar mobaynida falsafaning boshqa kategorial tushunchalari qatori ilm tushunchasiga doir juda ko'p masalalar bilan ham shug'ullanganligi turli doiradagi tadqiqotlardan ma'lum bo'lmoqda. Mana shunday tadqiqotlar asosida islomning muhim mezoniy tushunchalaridan hisoblangan "ilm" tushunchasiga berilgan ta'rif va tasniflarni tizimlashtirish imkoniyati tug'ildi. Zero, "Ilm-u tafakkur – kishini ezgulikka boshlaydigan beqiyos kuch. Ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mo'jizadir" degan fikr bildirilgan edi. [1.133]

Bu boradagi ularning izlanishlari nafaqat G'arb faylasuflariga yaqin tarzda ifodalangan, balki farq qiluvchi fundamental xususiyatga ham egaligi islomshunos olimlar tomonidan isbotlanmoqda. Shu ma'noda, islom falsafasidagi bunday yondashuvlar ilmning qay darajada e'tiqod, va qay darajada real borliqning haqiqiy in'ikosi ekanligini aniqlashga yordam beradi?

Hanuz islom falsafasida ilmlar o'rtasidagi farq, ularning o'zaro nisbati masalasi doirasida bahsli fikrlarning mavjudligi undagi ba'zi masalalarning hal etishga shart – sharoit yaratmoqda. Boshqacha aytganda, islom dini ham, islom falsafasi ham ilm tushunchasidagi biron-bir tafsilotni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Demak, "ilm" tushunchasi islom dinining eng muhim masalalari sirasiga kiradi. Buni biz islom dinining muqaddas manbalaridagi "ilm" tushunchasiga oid ko'rsatmalardan bilsak bo'ladi.

"Ilm" so'zi hozirgi arab tilida asosan ikki xil ma'noni bildiradi:

- 1) "bilim", ya'ni har qanday bilim.
- 2) "ilm", "fan", ya'ni nazariy bilim.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ham ilm so'zining ikki asosiy ma'nosi ajratib ko'rsatilgan: 1) o'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui; 2) fan [2.120].

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimda "alima" fe'li o'zbekcha "bilmoq" ma'nosida qo'llanilib, undan yasalgan "ilm" so'zi ham hozirgi o'zbek tilidagi "bilim" so'zining ma'nosini beradi.

Amerikalik sharqshunos olim Frans Rouzentaling islom va ilm munosabatlari bag'ishlangan "Ilm tantanasi" nomli asarida islom dini mag'iz-mag'zigacha ilm olishga da'vatdan iborat deb ta'kidlanadi. Mazkur asarning kattagina bir qismga "Ilm – islomdir" degan nom berilganligi ham bejiz emas. Islom – ilm demakdir degan g'oya asarning boshidan

oxirigacha singdirilgan. Olim fikricha, Qur’onda jami 78000 ga yaqin so’z bo’lsa, ilm so’zi ularning 1 foizga yaqinini tashkil etarkan. Shuningdek, Qur’onda “ilm” so’zi turli hollarda 765 marta takrorlanadi. [3]

Darhaqiqat, islom manbalarida ilm-u ma’rifatga, insonning dunyoni bilish imkoniyatlari va qobiliyatlariga alohida e’tibor berilgan. Boshqa ilohiy kitoblardan farqli o’laroq, Qur’oni karimda ilm so’zi ko’plab o’rinlarda tilga olingan. Bunda biz, eng avvalo, ilm haqidagi oyat va hadislarni chuqur o’rganib, atroflicha tahlil qilish zarurligini his qilamiz. Masalan, “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo’lurmi?”[4.617], “Ayting: “Ey Rabbim, ilmimni ziyoda qilgin!”[5.595] oyatlari hamda Jaloliddin Abdurrahmon as-Suyutiyning “Al-Jomi’ as-sag’ir” kitobida keltirilgan “Ilm – ibodatdan afzal”, “Ilmni man etish mumkin emas”, “Ilmga intiluvchi – Islom dini tayanchi, uning ajri payg’ambarlar bilan birga beriladi” yoki Abu Homid G’azzoliy bayon qilgan “Ilm o’rganish har bir musulmonga farz”[6.41] kabi qator hadislar shular jumlasidandir. Lekin bizningcha, bu oyat va hadislarda berilgan “ilm” yoki “ilm o’rganish” so’zlaridan qanday ilm nazarda tutilganligini o’z davri ijtimoiy muhitining talabidan kelib chiqib belgilash “farzi ayn”dir. Farzi aynning ma’nosi farz amalning kayfiyati haqidagi ilmni egallash demakdir.

Arab tilida ilmning mohiyatini “Narsalarni xuddi voqelikdagidek idrok etish” deb ta’riflanadi. “Islom dini ilmga qarshi bo’lgan” degan fikr esa “Din – ilmga qarshi” g’arb faylasuflari fikrining umumlashtirilgan ko’rinishi, xolos. Boshqa dinlar ilmga qarshi bo’lgan bo’lsa ehtimol, lekin islom hech qachon ilmga qarshi bo’lgan emas. Shu nuqtai-nazardan ham biz islom – ilm dini desak yanglishmagan bo’lamiz. O’z davridayoq buni anglab yetgan ajdodlarimiz Forobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Ibn Sino ilmlarni tasniflab, ularni “diniy” va “dunyoviy” mazmunga ajratmaganlar. Hozirgi zamon ba’zi musulmon faylasuflarining fikrlarida ham buning tasdig’ini topish mumkin. “Tabiat, uning qonuniyatlari ustida izlanish olib borish Alloh yaratgan olam qonuniyatlarini tadqiqot qilish demakdir. Ularni kashf etish esa, Alloh yaratgan qonunlarni bilish demakdir... Islom o’rganishga chaqirayotgan ilm tabiatshunoslik, hayvonot-nabotot, kimyo, tib, moddiyatni o’rganuvchi boshqa fanlar va albatta tafsir, hadis, fiqhdan iborat diniy ilmlardir”. [7.17]

Yuqoridagi fikrlar fransuz olimi M. Bukayning : “Ularni (Qur’on oyatlarini) yana bir bor o’rganib chiqqach, shuni shak-shubhasiz tan oldimki, mening oldimda isbot talab qilinmaydigan quyidagi haqiqat mavjud: Qur’onda zamonaviy ilm-fan nuqtai nazariga zid keladigan hech qanday mazmun mavjud emas. Islom har doim din va ilmni egizak opa-singil deb hisobladi va eng avvalo odamlarni ilm-fanni rivojlantirishga buyurdi. Ushbu amrning amaliy ifodasi tufayli buyuk Islom tamadduni davri ilm-fanning ulkan yutuqlariga guvoh bo’lib, Sharq va G’arbning farovonligini ta’minlashga xizmat qildi...” [8.6/7] degan fikrlari ham tasdiqlab beradi.

Agar biz jahon miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarga murojaat qilsak, islomda din va ilm munosabatlari doirasidagi bahs-munozaralarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, Qohiradagi “Al-Azhar” universiteti doktori Abdulhalim Mahmudning fikricha, “Ko’pincha, ayrim odamlarga maorifning ba’zi bir qirralari asl ma’nosi qorong’uligicha qoladi. Shuningdek, ko’p hollarda, kishilarga uning ba’zi bir jihatlariga nisbatan dinning tutgan munosabati ham chalkashligicha qolmoqda.” Shu ma’noda islom dini manbalarida din va ilm munosabatlarining mezonlarini, chegarasini aniqlab olish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda. Biz o’z tadqiqotimizda mazkur muammoni yoritish maqsadida falsafa va tabiiy-ilmiy bilimlarni tadqiq etishning nazariy-

uslubiy asoslarini ko'rsatib o'tishni hamda bu masalalar yuzasidan quyidagi ta'rif-tasniflarga e'tibor berishni lozim topdik.

Islom falsafasida ilmga berilgan ta'rif quyidagicha: "ilm kuzatuv, tajribalar, xulosalar asosida vujudga kelgan qonun-qoidalar va faoliyatlardan iborat jarayondir". Shuningdek, metafizika, axloq kabi o'z tarkibiga qonunchilik bilan jamiyat tartib-tizimlarini qamrab olgan sohalar ham borki, ularning bari agar aql ( mantiq)ga asoslansa, biz uni falsafa deymiz, degan qarash shakllangan.

Islom ta'limotiga oid ko'pgina manbalarda falsafiy bilimlarni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslarini ko'rsatib o'tish ilmning islomdagi doirasiga tayanilib, amalga oshiriladi. Unda ifodalanishicha, "ilm" so'zining faqat zamonaviy ta'rifi anglatgan ma'nosiga yopishib olmaslik kerak. Chunki, unda bunday ta'rif ko'proq materiyaga taalluqli, degan fikrlarni uchratish mumkin. Bunday yondashuvda qayd etilishicha, bu ta'rifdan borliq: osmon va yer hamda bular orasidagi olam bilan chegaralanish mavjuddir, degan xulosa kelib chiqadi. Mazkur ta'rifni falsafiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, borliqning ortida nima bor? Borliqdan avval nima bor edi-yu, undan keyin nima keladi? degan masalalar ochiq qolganligiga iqror bo'lamiz.

G'arb falsafasi, xususan, nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kant bu masalalarni o'zining transsendental bilimlar sohasidagi qarashlarida ifodalashga harakat qilib, ularni aprior masalalar, deb ta'rif va tasnif qilgan. [9.420] Shuning uchun islom falsafasida ham diniy va dunyoviy ilmlar uyg'unligi masalasini aniqlash va ko'rsatib berishda birorta olim yoki faylasuf na ilohiylikni, na payg'ambarlik (payg'ambarlarga vahiy yuborilishi)ni va yo g'aybga tegishli narsalarni inkor etmagan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, olim yoki faylasuf sifatida Xudoning mavjudligini tan olmagan va payg'ambarlikni inkor etgan kishi ilmiy jamoatchilik orasida unga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga yetarli dalil bo'lgan. Shuning uchun bag'rikenglik va xolislik fazilatlariga ega bo'lmagan olim yoki faylasufni o'z muhitidan siqib chiqarilgan holatlarni hozirda ham uchratish mumkin. Buning asosiy sababini esa ilm tushunchasi borasida uning dunyoqarashi cheklanganligi bilan ham belgilash mumkin.

Yangi davr Yevropa falsafasida, bilim sohalari orasidagi farqlanishni hamda har bir sohadagi tizim-tuzilishni osonlashtirish maqsadida insonning malakalari va sezgisiga muvofiq ravishda turlarga bo'lingan edi. Unga ko'ra, "tashqi belgilari ko'rinib turadigan, zehn orqali idrok qilinadigan makon" borki, u materiyadir. Olimlar idrok qilinadigan makonni ilm deb atashdi.

Islom falsafiy bilimlarida e'tirof etilishicha, mantiq uchun ham bir soha bor bo'lib, u ikki qismga bo'linadi: 1. Matematika va aniq fanlar. 2. Ilohiyot (Teologiya). Bu masalada ilohiyotni faqat aqlning o'ziga asoslanganini, axloq bo'limi ham faqat aqlning o'ziga tayanganini ko'rish mumkin va bunday g'oyalar tizimi birgina falsafa ilmida o'z aksini topadi. Bizga ma'lumki, mustabid tuzum davrida "ong-shuur, vahiy hamda insonning, payg'ambar yoki rasulning Alloh taolo bilan (sababiy) bog'lanishi dindir", – deb tushuntirilmas edi. Bunday yondashuv esa diniy va dunyoviy ilmlarni uyg'unlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, dinning ibtidosi biror bir manba yoki aqlning manbai kabi emas. Aql din olib kelgan dalillarning barchasini tasdiqlaganida edi, dinning asosiy prinsiplari bilan aql bir-biriga zid kelmasdi. Shu ma'noda islom falsafasi nuqtai-nazaridan ilmga umumiy ta'rif berish orqali yuqoridagi ixtiloflarga barham berishimiz mushkul.

Din, ilohiyot va axloq vahiyga suyanadi. Vahiy esa daxlsizdir. Falsafada esa ilohiyot va axloq aqlga tayanadi. Aql esa ham adashadi, ham to'g'ri yo'l topadi. Ammo zamonlar o'tishi bilan

uning haqiqatligi dalillar orqali isbotlanishi mumkin. Shu ma'noda, Alloh bizga vahiyda daxlsizlikni kafolatlagan bo'lib, aqlni mutlaqlashtirishimiz uchun yetarli asos topa olmaymiz.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. - 351 б. –Б.133.
2. O'zbekiston milliy ensiklopyediyasi. 4-jild. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopyediyasi, 2001.
3. Франтс Р. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. – М.: Наука, 1978.
4. Мансур А. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёти, 2001. – 617 б.
5. Шайх Муҳаммад Соддиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жилд. - Т.: HILOL NASHR, 2016. – 656 б.
6. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din (Din ilmlarini jonlantirish). Birinchi kitob. Ilm kitobi. /Imom al-Buxoriy nomli Toshkent islom instituti. Muharrirlar: Abdug'ofur Iskandar, Ahmad Muhammad Tursun./ - Т.: Movarounnahr, 2003. – 232 б.
7. Билим – имон чироғи. Қуръони карим оятлари, ҳадиси шарифлар, донишмандлар ҳикматлари/ Тўпловчи ва таржимонлар: А. Абдужабборов, Ҳ. Ҳамдамова. – Т.: Тошкент ислом университети, 2002. - Б.17.
8. Букай М. Библия, Коран и наука. – Париж, Религиоведение, 2008.
9. Скирбекк Г, Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Т.: Шарқ, 2002. – 720 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).